

TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUVI

Bisenov Kaxar Tobakabulovich

*Navoiy viloyati Konimex tumani 23-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi direktori, Navoiy, O'zbekiston
e-mail: kaxar.bisenov@mail.ru*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari ta'lim tizimida ham eski yondashuvlardan butunlay voz kechib, yangicha tamoyillarga milliy qadriyat va an'analarimizga jahonning ilg'or tajribalariga asoslanib, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va uning uzviy davomi bo'lgan «Ta'limni rivojlantirish dasturi» bugungi kunda hayot sinovidan o'tib, o'z hosilini berayotgan, xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgan yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik kadrlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirmoqda.

Bugungi kun ta'lim tizimida texnologiya ta'lim yo'nalishida bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy bilimlar bilan qurollangan amaliy malaka va ko'nikmaga ega mutaxassislar tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlagan holda ularda innovatsion ta'lim texnologiyalarini singdirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O'qitish tizimida qo'llanayotgan turli texnologiyalar bilan bir vaqtda milliy qadriyatlarga asoslangan "Milliy model"ni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning zamirida uzoq yillik tarixiy-ilmiy, pedagogik tajribaga ega bo'lgan shakllanib kelgan ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'zining istiqbolini ta'minlashiga shubha yo'q. Shu asosda bo'lajak bakalavr o'qituvchilarini tayyorlash zamon talablariga javob bera oladigan kasbiy mahorat, izlanuvchanlik hamda tashabbuskorlik kabi xislatlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga o'z fanini chuqur bilishi, bu fanning rivojlanish istiqbolini tahlil qila olishi hamda o'z bilimlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'rgatish ko'nikmalariga ega bo'lishi, har doim mustaqil ishlab bilim va malakasini zamon talabi asosida oshirib borishi zarur.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda texnologiya darslarida fan o'qituvchisining o'z mashg'ulotlarini pedagogik an'anaviy usullarda, interfaol metodlarda maqsadli ravishda olib borish ta'limning samaradorligini oshiradi.

Mashg'ulot samaradorligini oshirishda texnologiya fani o'qituvchisi mavzuning maqsadini belgilab olishi, noan'anaviy va an'anaviy darslarning farqini ko'ra bilishi natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarish mumkin. Noan'anaviy mashg'ulotlardan maqsad- bo'lajak texnologiya o'qituvchisining o'zlashtirish

ko'rsatkichini ko'tarish uchun texnologiya fanini o'qitishda, amaliy yoki seminar mashg'ulotlarini yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o'tkazishda pedagog va bo'lajak texnologiya o'qituvchisi faoliyatiga yangilik kiritib, interfaol metodlardan foydalanish hamda ularni tez va samarali baholashga erishishdir. Shu bilan birga noan'anaviy mashg'ulotlar o'quv jarayonida bo'lajak texnologiya o'qituvchisini mustaqil fikrlay olishga, o'zlari xulosa qilib, o'z-o'zini hamda guruhni baholay olishga o'rgatadi.

O'qituvchi tomonidan har bir mashg'ulotni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun mashg'ulot jarayonini loyihalashtirib borishi kerak.

Quyida biz umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun texnologiya fanidan "Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi. Jun va ipak tolalarning xossalari" mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan taxminiy loyihalashtirilgan texnologik xaritasini tavsiya etamiz.

Texnologik xarita: Mavzu: "Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi. Jun va ipak tolalarning xossalari".

Maqsad: jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi, jun va ipak tolalarning xossalarini tushuntirish.

Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quv jarayonini tashkil etish	Mavzuga oid namunalar tayyorlash, tarqatma materiallar tayyorlash, guruhlariga bo'lish, o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash
O'quv jarayonining mazmuni	Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi, jun va ipak tolalarning xossalari hamda qo'llanilish sohalari
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: og'zaki bayon qilish, FSMU texnologiyasi. Shakl: Suhbat, munozara, ko'rgazmaviylik hamda kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Jun va ipak tolali gazlamalar, jun va ipak tolalarning namunalari, tarqatma materiallar, matnlar, anketa blankalari. Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: rag'batlantirish, balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi, ularning faolligini oshiradi, darsga nisbatan qiziqishini uyg'otadi. Bir

	<p>mashg'ulot jarayonida barchani baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan mustaqil ishlarni qabul qilish, o'rganish va baholash. Jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni savol-javob orqali amalga oshiradi.</p>
	<p>O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishga o'rganadi, nutqi rivojlanadi va eng asosiysi qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>

Texnologik xaritalar o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyasi va zamonaviy metodlarning qo'llanilishi texnologiya fanining har bir mavzusi, har bir mashg'ulot bo'yicha tuzilgan bo'lib, fanni yaxlit holda tasavvur etishga yondashadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ilgor pedagogik texnologiyalarni jalb etish natijasida texnologiyani o'qitish metodlaridagi rang- baranglik uning dinamik rivojlanishini taminlamoqda. Uning samarasida talim samaradorligi oshib, sifat ko'rsatkichi yaxshilanmoqda. Ta'limni innovatsion rivojlantirishda bugungi ta'lim tizimida individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Texnologiya fanini o'qitishda ta'lim uzviyligini ta'minlagan holda guruhlarga bo'lib o'qitish ma'lum ma'noda sifat ko'rsatkichini oshiradi. Guruhlarga bo'lishda teng taqsimot bo'lishi shart, ya'ni har bir guruhda faol talabalar teng bo'linishi kerak. Bu usulning afzalligi shundaki, guruhlar orasida raqobat shakllanadi va jarayon faollashadi, bunda kam o'zlashtiradigan talabalar ham faol talabalar yordamida guruh mavqeini himoya qilish uchun aktiv harakatga kirishadi. Natijada, birinchidan guruhlar orasida sog'lom muhit yaratiladi, raqobat vujudga keladi, mavzuni o'zlashtirish sifati ortadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish bilan birgalikda texnologiya o'qituvchilarini izlanishga, har bir mavzuga ijodiy yondashishga, mas'uliyatni his qilishga, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, shu bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot va pedagogik izlanishlarni olib borishga undaydi. Eng asosiysi, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi fanni o'qitishda fanlararo integratsiyani qo'llay olishi, takomillashtirib borishi, uni o'quv jarayoniga tadbiiq etib borishda kasbiy mahoratini rivojlantirishi lozim.

Umuman olganda fan o'qituvchisini tayyorlashda nafaqat ilmiy- amaliy malaka va ko'nikmani shakllantirishi, balki yangilikka intiluvchan texnik mukammal shaxslarni tayyorlash kelajakda yurtimiz istiqbolini belgilaydi.